



**Zayniddin ZIYOTOV,**  
*O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi*  
*E-mail: zayniddinziyotov@gmail.com*

*O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti R.Djurayev taqrizi asosida*

## THE GOVERNMENT METHODS OF THE ASSYRIAN RULERS AND THE EARLIEST EMBASSY SYSTEM.

Annotation

This article provides information about the state administration of Assyria, one of the largest empires of ancient times, and its communication system. The article is devoted to the methods of governing the state of Assyria and the oldest embassy system, analyzing the centralized administrative structure, administrative divisions, tax system, and military strategies of the Assyrian Empire. It also highlights the formation of the ancient embassy system, its role in the development of diplomatic relations, and its importance in relations with other states. The article shows the effective administration of the Assyrian state and significant achievements in the field of international diplomacy.

**Key words:** Priest, nobleman, court, sun god, Subarei tribe, Bel-Pakhati, Babylon, Bel-Pikitti, slave, hul sarri, kudunnu, unqu, quepu, Pharaoh.

## МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ АССИРИЙСКИХ ПРАВИТЕЛЕЙ И РАННЯЯ СИСТЕМА ПОСОЛЬСТВ

Аннотация

В статье представлена информация о государственном управлении Ассирии, одной из крупнейших империй древности, и её системе коммуникаций. Статья посвящена методам управления Ассирийским государством и древнейшей системе посольств, анализируются централизованная административная структура, административное деление, налоговая система и военная стратегия Ассирийской империи. Также освещается формирование древней системы посольств, её роль в развитии дипломатических отношений и значение в отношениях с другими государствами. В статье показаны эффективное управление Ассирийским государством и значительные достижения в области международной дипломатии.

**Ключевые слова:** Жрец, вельможа, придворный, бог солнца, племя Субарей, Бел-Пакати, Вавилон, Бел-Пикитти, раб, хул сарри, кудунну, унку, кепу, фараон.

## OSSURIYA HUKMDORLARINING DAVLATNI IDORA QILISH USULLARI VA ENG QADIMGI ELCHILIK TIZIMI

Аннотация

Mazkur maqolada qadimgi davrning eng yirik imperiyalaridan biri bo‘lgan Ossuriyaning davlat boshqaruvi va uning a‘loqa tizimi haqida ma‘lumotlar taqdim etiladi. Maqola Ossuriya hukmdorlarining davlatni boshqarish usullari va eng qadimgi elchilik tizimiga bag‘ishlanib, unda Ossuriya imperiyasining markazlashgan boshqaruv tuzilmasi, ma‘muriy bo‘linmalar, soliq tizimi va harbiy strategiyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, qadimgi elchilik tizimining tashkil topishi, diplomatik aloqalarni rivojlantirishdagi o‘rni va boshqa davlatlar munosabatlardagi ahamiyati yoritiladi. Maqola Ossuriya davlatining samarali boshqaruvi va xalqaro diplomatiya sohasidagi muhim yutuqlarini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** Kohin, zodagon, sud, quyosh xudosi, Subarey qabilasi, bel-paxatilar, Bobil, bel-pikittilar, qul, hul sarri, kudunnu, unqu, qepu, Fir‘avn.

**Kirish.** Ossuriya juda katta hududlarni bosib olgandan so‘ng, bu hududlarni o‘z qo‘l ostida ushlab turishga va ularni yagona hokimiyat ostida birlashishga harakat qila boshlaydi. Buning uchun Asarxaddon va Tiglapalasar III davrida bir qator ishlar ham amalga oshirila boshlanadi. Masalan Asarxaddon davrida davlat boshqaruvida islohotlar amalga oshirildi, unga ko‘ra davlat amaldorlari soni ko‘paytirilib, har bir davlat organi uchun vazirlar tayinlanadi. Hukmdorning alohida topshiriqlarini uzoq viloyatlarga yetkazish uchun maxsus a‘loqa yo‘llarini tashkil etilib, bu orqali Ossuriya hukmdorlari davlatni yagona boshqaruv ostida ushlab turishga erishishdi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Hukmdorlar tomonidan yagona a‘loqa tizimining tashkil etilishi ularning hokimiyatini yanada mustahkamladi. Uzoq o‘lkalarga elchilar orqali hukmdorning maxsus farmonlarini yetkazish va ularni boshqarish hukmdorlar uchun juda qiyinchilik tug‘dirardi. Buning oldini olish uchun imperatorlar maxsus a‘loqa tizimini yo‘lga qo‘yishdi. Unga ko‘ra elchilik maktabi tashkil etilib, elchilar yoshlik chog‘idan maxsus tayyorgarlik asosida elchilik xizmatiga olinish tartibi joriy etildi. Bundan

ko‘zlangan maqsad, elchilarni yoshlik chog‘idan hukmdorga sodiq xizmatkor sifatida tayyorlash va ularni jismonan kuchli shaxs sifatida tarbiyalashdan iborat edi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur ilmiy maqola qiyosiy tahlil, tarixiylik, ilmiylik, uzviylik kabi metodlarga tayanilgan holda yozilgan.

**Tahlil va natijalar.** Ossur davlatining hududi bundan avvalgi vaqtda qadar, qadimgi Sharqda bo‘lgan davlat birlashmalarining hammasidan ham katta bo‘lgan hudud mavjud bo‘lgan. Shu sababdan mamlakatni idora qilish uchun juda murakkab va katta amaldorlar tizimi bo‘lishi talab qilingan. Asarxaddon davriga oid manbalar tahlil qilinganda uning davrida amaldorlar ro‘yxatida 150 xil mansab sanab o‘tilgan. Harbiy mahkama bilan birgalikda, aholidan soliq yig‘ish ishlarini olib boradigan moliya idorasi ham bo‘lgan[1]. Ossuriya davlatiga qo‘shib olingan o‘lkalar muayyan miqdorda soliq ham to‘lashi lozim bo‘lgan. Ko‘chmanchilar joylashgan o‘lkalar odatda yigirma bosh chorvadan bir boshini soliq sifatida to‘lagan. Saqlanib qolgan soliq ro‘yxatlaridan ma‘lum bo‘lishicha, aholisi o‘troq turmush tarzini kechirgan viloyat va shaharlar soliqni oltin va kumush bilan to‘lagan.

Dehqonlardan olinadigan soliq ko'p hollarda natura yo'li bilan olingan. Ular odatda hosilning 1/10 qismini, yem-xashakning 1/4 qismini, chorvadorlar esa chorvaning bir qanchasini soliq sifatida to'lagan. Mamlakatga savdo qilish uchun o'z mahsulotlarini olib kelgan savdogarlar maxsus bo'tlagan. Kamada mahsulot olib kelgan savdogarlar bandargohda, karvon orqali savdo qiluvchilar esa shahar darvozalarida oldida boj to'lagan. Faqat zodagon va kohlarning katta kollegiyalari ta'sirida bo'lgan shaharlarga bunday soliqlardan ozod etilgan. Masalan, Bobil, Borsippa, Sippar, Nippur, Ashshur va Xarran shaharlari podsho foydasiga olinadigan soliqlardan ozod etilganligini bilamiz. Bu shaharlar o'zini-o'zi idora qilishda alohida huquqlarga ega bo'lgan. Ossur podsholari taxtga o'tirganlaridan keyin odatda maxsus farmonlar chiqarib, katta-katta shaharlarning ozod bo'lish huquqlarini ham tasdiqlagan. Chunonchi, Sargon va Asaraddonlar davrida shunday bo'lgan. Ashshurbanipal taxtga o'tirganidan keyin, Bobil xalqi unga maxsus iltimosnoma bilan murojaat qilgan[2]. Bobilliklar bu iltimosnomada Ashshurbanipalga: "Shoh-sultonlarimiz taxtga o'tirganlari hamona bizning o'zimizni o'zimiz idora qilish huquqini tasdiqlash va bizni faravonlikka erishtirish yo'lida tegishli tadbirlar ko'rar edilar" deb, eslatganlar. Zodagonlarga berilgan hadya yorliqlarida ko'pincha ularning majburiyatlardan ozod etilgani haqidagi ma'lumotlarni ko'ramiz. Hadya yorlig'i odatda: "Don solig'i olinmasin. Bu odam o'z shahrida majburiyat to'lamaydi" deb yoziladigan bo'lgan. Aholidan olinadigan soliq va bojlar maxsus ro'yxat asosida olib borilgan, bunday ro'yxatlar esa, aholini va uning mol-mulkini vaqti-vaqti bilan hisobga olish vaqtida tuzilgan. Xarran shahrining saqlanib qolgan soliq ro'yxatlarida kishilarning nomlari, ularning qavm-qarindoshlik munosabatlari, mol-mulki, xususan ularga qarashli yer miqdori va ular soliqlarini qaysi amaldorga to'lashi lozimligi ko'rsatilgan[3].

Mil.avv. XIV asrga oid bo'lgan va hozirga qadar saqlanib qolgan qonunlar to'plami, qadimgi urf-odatlariga asoslangan huquqning joriy qilingani va bu huquqda juda qadim-qadim zamonlardan qolgan bir qancha qoldiqlar, chunonchi, o'ch olish, sudda odamning aybdor yoki aybsiz ekanligini suv vositasi bilan sinab aniqlash odatlari saqlanib qolganligini ko'rsatadi. Biroq urf-odat huquqi va jamoa sudining qadimgi formalari o'zgarib, ular o'rni podshoning muntazam adliya ishlari tobora ko'proq egallay boshlagan: podshoning muntazam adliya ishlari sud amaldorlari qo'lida bo'lib, bu amaldorlar janjalli masalalar va bahsli muhokamalarni o'z bilganlaricha hal qilganlar. Bu Ossuriyada dastlabki vaqtlardagi adliya tizimining boshlang'ich bo'g'ini bo'lib keyinchalik bu ishlar taraqqiy etib borgan. Bilasizki qadimgi huquqchilik tizimi Ossuriyada juda sust rivojlangan, bu asosan Asaraddon davrida nisbatan adliya tizimining taraqqiy etishi bilan asta sekin o'z yechimini topa boshlagan. Adliya tizimi dastlabki vaqtda asosan yakka shaxs tomonidan olib borilganligi va qaror qabul qilish faqat yakka shaxsning irodasiga bog'liq bo'lib qolganligi sababli juda ko'p kamchiliklarni keltirib chiqargan[4]. Bu esa jamiyatni ijtimoiy tengsizlik va norozilik kayfiyatini kuchayishiga qarshi bo'lgan podsho adliya tizimini izchil va barqaror isloh qilishga kirishadi. Shundan so'ngina yagona huquqchilik va adliya tizimi tashkil qildi. Sud qilish tartibi jinoyat alomatlari va turini aniqlashdan, guvohlar surog'idan, sud sinovi va sud hukmi chiqarishidan iborat bo'lgan: guvohlar o'z so'zlarining to'g'riligini tasdiqlash uchun "quyosh xudosing o'g'li ilohiy ilohiy ho'kiz" nomi bilan qasamyod qilganlar[5]. Oliy sud esa o'z majlislarini odatda podsho saroyida o'tkazgan. Saqlanib qolgan hujjatlardan ma'lum bo'lishicha, mavjud sinfiy tuzumni mustahkamlash maqsadini ko'zda tutib ish ko'ruvchi osur sudlari aybdorlarga nisbatan har xil jazo choralarini ko'rganlar, ba'zi hollarda esa bu jazolar nihoyatda shavqatsiz

bo'lgan. Aybdorni jarima to'lashga, majburiy xizmatga va tan jazosiga hukm qilish bilan birga, uni butkul majruh ham qilib quyganlar. Aybdorning labi, burni, quloq va barmoqlarini kesib tashlaganlar. Hukm qilingan mahbusni ba'zan qoziqqa qoqib quyganlar yoki boshiga qaynab turgan sut quyish holatlari ham kuzatilgan. O'sha vaqtda Ossuriyada zindonlar bo'lgani bizgacha saqlanib qolgan hujjatlarda ham saqlanib qolgan. Ularda asosan og'ir jinoyat qilgan jinoyatchilar saqlangan[6].

Ossuriya davlati o'sib, kuchayib borishi bilan Ossuriyaning o'z qo'l ostidagi o'lkalarni ham, istilo qilingan qilingan mamlakatlarni ham yanada puxtaroq idora qilish ehtiyoji tug'ila borgan. Subarey, ossur va aramey qabilalarining yagona ossur xalqi bo'lib birlashib, qorishib ketishi oldingi qabilaviy va urug'chilik aloqalarini uzilib ketishiga sabab bo'lgan, bu esa mamlakatni ma'muriy jihatdan yangidan taqsimlash zaruriyatini keltirib chiqargan[7]. Ossur askarlari istilo qilgan uzoq o'lkalarda o'lkalarda tez-tez qo'zg'olonlar bo'lib turgan. Shu sababdan, Tiglapalasar III podsholik qilgan davrda katta-katta hududlardagi o'lkalar kichikroq yangi okruglarga bo'linib, ularda maxsus amaldorlar (bel-paxatilar) boshliq qilib qo'yilgan. Okrug boshida turgan bu amaldorlarga nom bobilliklardan olingan. Idora qilishga qulay bo'lgan kichik-kichik okruglarning barcha yangi sistemasi ham Bobildan olingan bo'lishi ham mumkin. Bunga sabab sifatida biz, Bobilda aholi zich joylashganligini hisobiga doim kichik okruglar tashkil etishni talab qilgan. Boshqaruvning bu uslubi Bobilga juda qo'l kelgan[8]. Ossuriya esa juda katta hududda joylashganligi ko'p noqulayliklar keltirib chiqargan. Shundan so'ng esa Tiglapalasar III bu tizimni isloh qilmasdan, mamlakat yaxlitligini saqlab qolish qiyinligini tushunib yetgan va bobilliklar tizimini qo'llashga qaror qilgan. Bu ham o'z navbatida samara bera boshlagan mamlakatning butun hududi kichik harbiy okrugga aylantirilib ularga Bel-paxatilar tayinlangan. Maxsus imtiyozlarga ega bo'lgan savdo shaharlarini alohida boshliqlar idora qilgan. Ammo davlatni idora qilish va boshqaruv sistemasi qisman bo'lsa ham markazlashtirilgan edi. Davlatning maxsus chegara va muhim strategik hududlarini idora qilish uchun podsho o'zining maxsus vakillarini tayinlagan. Bu vakillar podshoning buyrug'ini so'zsiz bajarishi lozim bo'lgan. Bu vakillar Bel-pikittilar deb atalgan. Bu amaldorlar yordami bilan juda katta davlatning hamma idora ishlari podsho saroyida to'plangan.

Yangi Ossur davrida, davlat sarhadlari juda katta bo'lib ketganligi sababli bu mamlakatni idora qila oladigan kuchli markaziy hokimiyat ham talab qilina boshlandi. Doimo bosqinchilik urushlarini olib borish uchun, bo'ysundirilgan hududlar o'rtasida, shavqatsiz suratda ekspluatatsiya qiluvchi qullar va kambag'allarning keng ommasi orasida ko'tarilgan qo'zg'olonlarni bostirish uchun oliy hokimiyat bir mustabid qo'lida to'planib, uning nufuzi va obro'yini din bilan qoralanmaydigan muqaddas bir kuchga aylantirish talab qilingan. Podsho oliy bosh ruhoniylar hisoblanib, diniy marosimlarni uning o'zi o'tkazgan. Hatto podsho qabuliga kirgan zodagonlar ham podshoning oyog'iga yiqilib, uning oyog'oni o'pishlari lozim bo'lgan. Biroq Ossuriyadagi diniy hokimiyat Misrda davlatchilik g'oyat rivojlanib, Fir'avn esa xudoga tenglashtirilgan davrdagi kabi aniq ifodasini topmagan. Ossuriya juda yuksalgan davrda ham ossur podshosi ba'zan kohlardan maslahat olishga majbur bo'lgan. Katta harbiy yurish boshlash oldidan yoki yuqori darajali amaldorlarni mas'uliyatli o'ringa tayinlash paytida ossur podsholari „xudolardan“ rozilik so'rganlar: xudolar roziligini esa podshoga kohlilar olib bergan. Bu hol quldorlik aristokratiyasidan iborat bo'lgan hukmron sinfning, hukumat siyosatiga ancha katta ta'sir qilishiga imkon bergan. Ossuriya VIII oxirlari katta hududlarni egallagan davlat bo'lgan[9]. Kichikroq okruglarni Bel-paxatilar, chegara hududlarni esa

Bel-pikittilar boshqargan. Keyinchalik bir qator urushlar natijasida qo'shni o'lkalar ham Ossuriyaga bo'ysunib, ularni ham nazorat qilish podsho zimmasiga tushadi. Ba'zi hollarda esa Ossuriya hukmdorlari qo'shni o'lkalarga o'zining oldingi hukmdorini qoldirar, ularni nazorat qilish uchun esa Ossuriya shohining shaxsiy delegatlari (qepu) qoldirilib, ular yordamida bu hududni boshqarib turardi. Bu delegatlar faqat podshoning buyrug'ini bajarib, faqat ularga bo'ysungan.

Ossuriyada amaldorlar faqat zodagon oiladan kelib chiqmagan. Masalan, birinchi navbatda amaldorning otasi yoki onasi aslzodaligi emas, balki uning shaxsiy va professional qobiliyati alohida e'tiborga olingan. Ossuriya amaldorlarining ismlari manbalarda deyarli tilga olinmaydi. Sabab sifatida esa tarixchilar, amaldorlar yoshlikdan xalq orasidan tanlab olinib, ularni amaldorlarga xos tarzda tarbiya qilishib, podshoga sodiq vakil sifatida voyaga yetkazishgan va bu orqali ularning kim ekanligi sir tutilib, ularga tashqi bosimlar kam bo'lishi taminlangan. Ossuriya hukmdorlari ham hokimiyatni egallashdan oldin amaldorlik tizimida faoliyat olib borgan. Masalan, Tiglapalasar III, Sargon II, Ashshurbanipal kabi hukmdorlar davlat amaldori sifatida podshoga itoat qilgani manbalarda saqlanib qolgan[10].

Davlat uchun eng muhim bo'lgan va qirolning maxsus farmon va topshiriqlarini viloyat va okruglarga tez yetkazish imkonini beruvchi aloqa yo'llari Ossuriya uchun juda muhim bo'lgan. Favqulotda holatlarda podsho viloyatlarga o'zining vakili orqali farmonlarini tezda yetkazishi va okruglardagi holatlarni nazorat qila olishi uchun bu aloqa tizimi juda muhim bo'lgan. Salmanasar III davrida tashkil qilingan va qirolning maxsus yo'li (hul sarri) deb nom olgan bu aloqa tarmog'i, keyingi davrlarga yanada takomillashib borgan.

Barcha Ossuriya gubernatorlari o'z viloyatlaridagi strategik mavqega ega bo'lgan yo'l stansiyalarini saqlashlari kerak edi. Chunki, yo'llar xavfsizligi okrug gubernatorlariga bog'liq bo'lgan. Ossuriyada podsho yo'llari maxsus punkt bo'ylab joylashtirilgan yoki zarur qurol-yarog', qishloq xo'jaligi mahsulotlariga ega bo'lgan aholi punktlari orasidan ham podsho yo'llari o'tgan. Bunga sabab esa podshoning maxsus farmonini uzoq viloyatga olib boruvchi shaxs dam olish, yetarli miqdorda ozuqa va qurolga ega bo'lishi uchun bu punktlarda to'xtay olishi, kerakli mahsulotlar bilan o'zini taminlay olishi uchun yo'l tarmoqlari shu tarzda joylashtirilgan.

Ossuriyada aloqa uchun transport vazifasi sifatida xachirlardan (kudunnu) foydalanilgan. Ular ancha chidamli hayvon bo'lib, ko'pincha juft holatda olib yurilgan. Bunga sabab elchining xachiri yo'lda talofat olsa yoki cho'loq holatga kelib qolsa, ikkinchi xachirni almashtirish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun, xachirlar ko'p hollarda juft qilib olib yurilgan. Bu hayvonlarni tanlashda ko'pincha bepustlari tanlanib, parvarish qilingan. Sabab sifatida esa shuni aytish mumkinki, bepust xachirlar ancha baquvvat va

uzoq muddat xizmat qila olgan. Ularning tuyoqlari ham otnikiga nisbatan ancha baquvvat bo'lib, ortiqcha parvarish talab qilmagan. Ossuriyaliklar buni anglagan holda otlarga nisbatan xachirni afzal ko'rgan. Bepust xachirlar esa 20 yil davomida xizmat ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lgan. Xachirlar tog'li joylar, tor daralardan ham daryo va ko'ldan ham oson suzib o'ta olgan. Shuning uchun ham ossuriyalik elchilar otlarga nisbatan xachirlarni afzal ko'rgan. O'sha vaqt uchun bu yo'llar misli ko'rilmagan darajada tez bo'lgan. Xatlar 2 xil holatda tezda o'z manziliga yetkazilishi shart bo'lgan.

Podsho taxtda bo'lmay, uning vakili poytaxtdan turib podshoga yuborgan maktubi.

Favqulotda holatlarda (dushman hujumi, podshoning maxsus farmoni, urush boshlash, hokoza.)

Xatlar muhimligi uchun elchilar xatni ko'p hollarda qo'lma-qo'l tarzda ya'ni bir elchi xatni bir stansiyagacha yetkazgan[11]. Bu esa xatni tez borishini yanada tezlashtirgan. Shu tariqa horg'in va jismonan toliqqan elchilar yangi kuchlar bilan almashtirilgan. Podshoning maxsus va alohida farmoni bilan chiqqan elchilar yo'lda almashtirilmagan. Chunki ular davlat uchun maxsus xatni o'z egasiga shaxsan topshirishi shart bo'lgan. Xo'sh nega aynan ular bunaqa yo'l tutishgan?

Yo'lda almashgan elchilar ichida josuslar yoki sotqinlar bo'lishi, dushmanlar esa davlat siridan xabar topishi mumkin bo'lgan. Buni yaxshi anglagan podsho esa o'zining maxsus elchisi xatni olib borishini istagan. Elchilar maxsus tayyorgarlikdan o'tgan, yoshlikdan tarbiya qilinib elchilikka tayyor holatda bo'lishgan. Podsho ham ularga alohida ahamiyat qaratgan. Elchilarning kim ekanligi, ular qay tarzda safarga o'tlanishi juda maxfiy tarzda amalga oshirilgan. Xo'sh elchilar haqiqiyliги yoki uning aynan podsho elchisi ekanligi qay tarzda aniqlangan. Podsho elchilari uchun maxsus muhrlar joriy qilingan. Bunday muhrlar (unqu) uzuk shaklida bo'lgan. Unda sher va odam tasviri tushurilgan. Elchining qo'lidagi uzuk tasvirini faqat ma'lum toifadagi vakillargina ko'rib, bu inson podsho elchisi ekanligini aniqlay olgan[12]. Bu ham elchining ham xatning xavfsizligini taminlagan va xat o'z egasiga maxfiy tarzda yetib borishini osonlashtirgan.

**Xulosa.** Ossuriya davlati dunyo tarixida markazlashgan boshqaruv tizimini joriy etgan eng qadimgi davlatlardan biri sifatida alohida o'rin tutadi. Ossuriya hukmdorlari o'z davrining ilg'or boshqaruv usullarini yaratgan bo'lib, ularning asosiy maqsadi markaziy hokimiyatni mustahkamlash va butun imperiya hududlarida yagona tartib o'rnatish edi. Ular viloyat boshqaruvchilarini tayinlash, soliq tizimini qat'iy nazorat qilish, yirik harbiy yurishlar orqali davlat qudratini oshirish kabi choralarini amalga oshirish orqaligina davlat yaxlitligini saqlab qolish mumkinligini yaxshi bilganlar. Shuning uchun ham ossur hukmdorlari davlat boshqaruv sohasida qator islohotlar amalga oshirib, bu orqali davlat qudratini uzoq yillar saqlab qolishga erishgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Qadimgi dunyo tarixi xrestomatiyasi. O'quv qo'llanma. R.Rajabov. -Toshkent.: «Adib» nashriyoti, 2013. -B. 243.
2. Avdiyev. V.A. Qadimgi sharq tarixi. - Toshkent: 1964. -B. 410.
3. Диаконов И.М. Развитие земельных отношений в Ассирии. Л.1949. -С. 152.
4. Кабилов А. Qadimgi sharq tarixi. Toshkent: - «Tafakkur» nashriyoti, 2016. 141-145. B.
5. Кузищин В.И. История древнего востока. Москва: «Высшая школа» 1988.-С 139-150
6. Rajabov R. Qadimgi sharq harbiy san'at tarixi. Toshkent: «Yangi asr avlodi» nashriyoti, 2018. -B. 43-60.
7. Мочалов М. Ю. Ассирийская Держава. От города-государства-к империи. Москва: «Вече» 2015. -С 119-131.
8. Urakov D. Jahon tarixi. Toshkent: «Innovatsiyo-Ziyo» nashriyoti, 2020. -B. 66-67.
9. Ашшурбанапал/С.С. Соловьёва//Анкилоз -Банка. Москва: Большая российская энциклопедия, 2005. - С. 597—598.
10. Сагг. X. Вавилон и Ассирия. Быт, религия, культура. -С 68-71
11. История древнего Востока: От ранних государственных образований до древних империй / Под ред. А. В. Седова. — М.: Восточная
12. Литература, 2004. С. 896.
13. Тураев Б. А. История Древнего Востока. — Москва: Харвест, 2004. — С. 752.